

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2023 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2023 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali - lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi - ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Ushenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Abdulhay Sobirov

O'zbek tilining buguni va kelajagi bo'yicha mulohazalar.....6

Marhabo Umurzoqova

Lisoniy shaxs tushunchasi va uning lingvistik talqini.....17

Sadagat Abbasova

Turli tillarda ma'nosiz ovoz almashish yo'nalishlari.....31

Adabiyotshunoslik

Sebahat Deniz

Büyük Türk Hakanı Babür'ün ve Neslinin Türk Edebiyatının
Gelişmesindeki Rolü.....43

Ilyos Ismoilov

Iskandarnomalarda yunon donishmandlari obrazi.....58

Nodira Xolikova

O'zbek jadid she'riyatida ayol obrazining ijtimoiy-estetik omillari
(Cho'lpon va Hamza ijodi misolida).....77

Fan. Ta'lim. Metodika

Vahobjon Nazarov

Fransuz tili darslarida multimedia vositalari: turlari va
texnologiyalari.....94

Sotsiologiya. Psixologiya

Komil Kalanov

O'zbek tilidagi duolarda muqaddaslik timsoli ifodasining
sotsiologik talqini.....108

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Somoniylar sulolasining huquqiy maqomi.....132

CONTENT

Linguistics

Abdulhay Sobirov

Reflections on the Present and Future of the Uzbek Language.....6

Marhabo Umurzakava

The Concept of Linguistic Personality and its Linguistic Interpretation..17

Sadagat Abbasova

Directions of Voice Substitutions Without Meaning in
Different Languages.....31

Literature

Sebahat Deniz

The Role of the Great Turkish Khan Babur and his Generation
in the Development of Turkish Literature.....43

Ilyos Ismoilov

The image of Greek Sages in Iskandarnames.....58

Nodira Kholikova

Socio-Aesthetic Factors of the Female Image in Uzbek Jadid Poetry
(using the example of poems Chulpan and Hamza).....77

Science. Education. Methodology

Vahobjon Nazarov

Multimedia tools in French Language Classes: Types and
Technologies.....94

Sociology. Psychology

Komil Kalanov

Sociological Interpretation of the Expression of the Symbol
of Holiness in Blessings in the Uzbek language.....108

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

Legal Status of the Samanids Dynasty.....132

O'zbek jadid she'riyatida ayol obrazining ijtimoiy-estetik omillari (Cho'lpon va Hamza ijodi misolida)

Nodira Xolikova¹

Abstrakt

XX asr boshida Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy hayot in'ikosi adabiyotda o'zining yorqin ifodasini topish bilan birga taraqqiyotga undovchi omillar targ'ibi masalasiga keng o'rin ajratdi. Bu paytda xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o'rni va mavqeyi birmuncha o'zgardi. O'zbek jadid she'riyatida xotin-qizlar obrazi juda keng istifoda etilib, bu mavzuda Hamza va Cho'lpon singari ma'rifatparvar shoirlarning hissasi cheksiz bo'ldi. Ayni shu ijodkorlarning asarlari yangicha vazn va janr, yangi obraz va qahramonlarni kashf etdi. Maqolada bir nechta tarixiy va afsonaviy ayollar obrazi haqida so'z yuritilar ekan, ular o'zaro muqoyasa qilinib, tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *Sharq qizi, erk, ona-Vatan, ma'rifat, bilimli murabbiylar, paranji.*

Kirish

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy voqelik ta'siri natijasi o'laroq adabiyotdagi ko'p asrlik an'analar evrilishga yuz tutdi. Bu davrga kelib adabiyotda ijtimoiy pafos kuchaya boshladi. Erksiz xalq haqsizlik va mutelikka qarshi bosh ko'tardi – millat uyg'ona boshladi. Bu davr adabiyoti mazmun-mohiyati bilan chin ma'noda "milliy uyg'onish adabiyoti" edi. Zero, uning taraqqiyot yo'llari ham o'ziga xos va murakkab edi. Millatparvar shoir-u adiblar eng og'ir damlarda xalq bilan yakdil bo'ldi. Asarlarida uning orzu va iltiroblarini bor ko'lami bilan ifodalashga intildi.

XX asr jadidlar lirikasi mavzu, ko'lam va obrazlar tizimiga ko'ra keng qamrovli bo'lib, uning aksariyat o'rinlarida Turkiston manzaralari aks etgan. Mazkur davrlarga qadar she'riyatda ko'proq

¹Nodira Xolikova Djoxongirovna – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: kholikovanodira@navoiy.uni-uz

ORCID ID: 0009000803836301

Iqtibos uchun: Xolikova, N. D. 2023. "O'zbek jadid she'riyatida ayol obrazining ijtimoiy-estetik omillari (Cho'lpon va Hamza ijodi misolida)". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 77 – 93.

insonning ruhiy olamidagi evrilishlar, kechinmalar, taassurotlar qalamga olingan bo'lsa, endi ijodkorlar real voqelik haqida yozishga yuz tutdilar. Binobarin, tarixiy vaziyat tamomila yangi o'zanga o'tib, maqsad ham, inson ham, adabiyot ham "ijtimoiylashdi". Shaxs-shoir uchun bu tabiiy ehtiyoj edi. Zero, davr shart-sharoitlari yuzaga keltirgan talabni qondirish uchun she'riyat "ro'mon va tiyotru" kitoblari bilan, to'g'rirog'i, lirika epos va drama bilan raqobatga kirishishi, ularning imkoni doirasidagi vazifalarni qisman bo'lsa ham zimmasiga olishni taqozo etgani ravshanlashadi.

Lirik asarlarda ayollar masalasi

Bu hodisani xotin-qizlar bilan aloqador lirik matnlar misolida kuzatish mumkin bo'ladi. O'tgan asrning dastlabki choragida Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulhamid Cho'lponlar bu mavzuga nisbatan ko'proq yondashishgan va masalaning jiddiyatini tushungan holda millatga yuzlanishgan. Klassik Sharq adabiyotida ayol obrazi asosan, yor, ma'shuqa, gul, ona kabi obrazlar orqali talqin qilingan bo'lsa, biz tilga olgan ijodkorlarda yor ko'proq ijtimoiy mazmun kasb etdi. Hamza va Cho'lpon lirik qahramonining yori – ona-Vatan. Kuzatishlarimizda bu muqoyasa she'riyatning zohirdan o'z an'anaviy shakllarini saqlagan holda mohiyatan yangilanib borganligi borasida asosli dalillarni qo'lga kiritdik. Jumladan, jadid she'riyatida "Sharq qizi", "O'zbek qizi" obrazi juda keng istifoda etilgan. Chunonchi, Cho'lponning "Sharq qizi ("Singlimga)" she'rida muallif Sharq qizining bahor kelganini ko'rmay qolishini, "uzun, qora qishning ketmasdan izi uning do'sti – kuzni kutib ol"ishini, uning "qora ko'zi kiyik ko'zidek belgisiz ovchining o'qin ko'r"ishini, "Sharqda bog'liq xotinlar" "erkin nafas" olib, "shodlanib", "yayrab" yashaydigan "ul yorug'" dunyoga na zamon kir"ishini dard va iztirob bilan ifodalagan. Sharq qizining butun tanasi, joni "xayol uyasi" ekanini aytar ekan, "har kimda bir shodlik, har kimda bir ruh, har kim kulib qarar emish dunyoga" deb aytadigan kunlarni orzularga ko'milib kutishini tasvirlaydi. Shoir Sharq qizi timsolida Turkiston xotin-qizlarining erksiz, qo'l-oyoqlari, ko'zlari bog'liq, yorug' kunlarga zor qiyofasini tasvirlaydi.

*Faqat men bir o'zim, Sharqning bir qizi,
Bahor kelganini ko'rmay qolamen.
Uzun, qora qishning ketmasdan izi
Uning do'sti – kuzni kutib qolamen.
Aytalarkim, yozda har bir joni bor
Erkin nafas olar, shodlanar, yayrar.*

Aytalarkim, Sharqda bog'liq xotinlar

Ul yorug' dunyoga na zamon kirar?... [Чўлпон 2016, 50].

Darhaqiqat, Cho'lpon tasvirlagan ayol obrazida Vatan, xalq, millat tushunchasi mujassam. Ezilgan xalq faqat qish va kuzni ko'rib, bahor va yozni ko'rmay qolishi bejiz emas edi. Qalbi o'ksik millat Sharq ayoli timsolida aks ettirilishi yolg'iz o'zbek she'riyatida emas, balki ayni davrga tegishli ozarbayjon adabiyotining yorqin namoyandasi Husayn Jovid (1884-1944) ijodida ham uchraydi. Cho'lponning "Sharq qizi" she'ridagi mung va qayg'u ohangi uning "Sharq ayoli" she'rida yanada kuchliroq ifodalangan:

Bən nə idim? Şərqin əzilmiş qadını!

(Bir az sükut...)

Bən nə idim? Uf, onu heç sormayınız

Varlığım bir quru heç!

Mən qanday edim? Şarqning ezilgan ayoli!

(Bir oz sükut...)

Mən qanday edim? Uhh, heç so'ramang uni

Borligim shunchaki bo'shlik, heç!

Keçmişin ən qaba, ən vicdansız,

Kirli dırnaqları qəhr etdi bəni.

Görmədim gün işığı;

Doğduğum gündən əvət tarixin

Paslı zəncirləri inlətdi bəni;

O'tmişning eng qo'pol, eng vijdonsiz,

Kirli tirnoqlari qahr etdi meni.

Ko'rmadim kunduz shu'lasini;

Ha, tug'ilganimdanoq tarixning

Zanglagan zanjirlari ingratdi meni.

Ko'rinadiki, ayollarning ahvoli Turkistondagina emas, boshqa turkiy va Sharq xalqlarida ham g'oyat achinarli, abgor bo'lgan. Husayn Jovidning xotin-qizlarning erksiz, huquqsiz, "qonxo'r sultonlar" qo'lida "vaqtichog'lik" uchun "eng nafis, ishvali bir yaratiq"ligi, istashsa "Nilga" yoxud "gulxanga" otishi mumkin bo'lgan "bebaxt umr" sohibasi ekani haqidagi tasvirlari o'zbek shoirida ham deyarli o'xshash shaklda ifoda etilgan.

Birgina she'r misolidayoq Husayn Jovid ijodining eng muhim yo'nalishlaridan biri – xotin-qizlarga bog'liq bo'lgani ko'rindi. Yolg'iz o'z vatanida emas, butun Sharq ayollarning huquqsizligi, savodsizligi, oyoq osti qilinishi va zulm ostida qolayotgani millat oydinlarini qattiq o'yga toldirgan. Har ikki ijodkor ham tom ma'noda

ziyoli bo'lganliklari uchun ham yurt va millatning ravnaqi ma'rifatli, huquqlari ta'minlangan va hur ayollarga bog'liqligiga ko'zlari yetgan va shunga ko'ra ham qalam bilan, ham amaliy kurashishgani ma'lum bo'ladi.

Asarlardan asarlarga o'tib borgan sari ular yaratgan ayollar obrazining takomillashib borgani buni tasdiqlaydi. Tadqiqotchi Sevinch Asadova ham bu o'sishni payqagan holda yozadi: *"Husayn Javidning ayollar masalasiga munosabati, uning ayollar haqidagi qarashlari har doim bir xil davom etmadi, vaqt o'tishi bilan uning qarashlarida o'zgarishlar paydo bo'ldi. Ijodining birinchi davrida u ayolni asosan zaif, kuchsiz, kamsitilgan, haqoratlangan inson sifatida tasvirlagan bo'lsa, keyingi davrda esa ayolni o'z huquqlari uchun kurashishga qodir shaxs sifatida tasvirlaydi"* [Əsədova]. Shu ma'noda adabiyotshunos Gulbeniz Babaxanli qarashlari yuqoridagi mulohazalarga uyg'un keladi: *"...Jovid ijodida go'zallik va mehr-oqibat, yuksak insoniy axloq va muhabbatni ifodalovchi ko'plab olijanob ayollar obrazini uchratish mumkin"* [Babaxanli].

Cho'lpon ham, Husayn Jovid¹ ham Sharqdagi mazluma ayol taqdiriga bag'ishlab yozgan dard va tug'yonli asarlaridagi uyg'unlikning boshqa omillarini-da aytib o'tish lozim. Har ikkisi turk, musulmon, boz ustiga bir zamonda yashashgan, mustamlakachisi bir bo'lganidan ijtimoiy-siyosiy muhiti ham ayni ijodkorlarning maqsad-u matlabi yagona bo'lgani shubhasiz.

Ayol bosh obraz darajasiga ko'tarilgan she'rlarda ular tarixiy shaxs-ayollarga, badiiy asarlardagi qahramon-ayollarga, shuningdek, zamondosh ayollarga murojaat etish an'anasi Cho'lpon va Hamza ijodida takror keladi. Chunonchi, Cho'lpon "Kleupatra uyqusi", "Ketganingda (Kleupatrada)" kabi asarlari orqali Kleopatra timsoliga bir necha marta murojaat qilgan:

*Ortiq sen undagi bog'da,
Ortiq men yakkami qoldim?
Faryod yo'q... barcha jahon jim,*

¹Jovid fojia janrida ayollarning huquqsizligi mavzusini adabiyotga kiritgan birinchi ijodkor edi. Uning "Kiyik" (1912) dramasi Ozarbayjon ayoli fojiasini aks ettirgan. Shuning uchun asarning ilk nomlanishi "Bechora ayol" bo'lgan (<https://manera.az/index.php?newsid=9638> Sevinc Qəmbərli, Hüseyn Cavid: orta q türk dili və feminizm məsələləri). U xurofat va jaholat hukmronlik qilgan, eskirgan urf-odatlar va an'analar yashagan jamiyatda Sharq ayoli ko'rgan azob-uqubatlarni aks ettirdi. Husayn Jovid ayollarni o'z huquqlari uchun faol kurashishga chaqirdi va ayollarga ta'lim, madaniy taraqqiyot orqali o'z huquqlariga erishish yo'lini ko'rsatdi. U ayolning go'zalligini zargarlik buyumlari yoxud boylikda emas, ma'rifat, bilim, ta'limda ko'rdi ([https://nuhcixan.az/news/cemiyyet/8402-huseyn-cavid-yaradiciliginda-qadin](https://nuhcixan.az/news/cemiyyet/8402-huseyn-cavid-yaradiciliginda-qadin-Səbinə Dünyamahiyeva) Səbinə Dünyamahiyeva, Hüseyn Cavid yaradiciliginda qadin).

Yer yutsa yaxshi shu choqda!..

Ketdingmi sen meni tashlab?

Qoldimmi qayg'umni boshlab? [Чўлпон 2016, 117].

Aslida ham, Cho'lpon ijodiy merosi o'zak tomiri ERK tushunchasi bilan mustahkam bog'lanib ketganini uning she'rlari tahlilida asoslash qiyin emas. U Kleopatrani vasf etish yoki unga hammani ergashtirishi emas, undan ilhom olib, xalqda hurriyat, istiqlol tuyg'usini uyg'otishni ko'zlarkan, hukmdor ayol siymosida erk va ozodlikning g'alabasini ko'rgan. Shu o'rinda bir og'iz so'z Misr malikasi Kleopatra haqida. Nega Cho'lpon uni tez-tez eslagan.

Kleopatra shu ismdagi 16 nafar malika ichida yettinchisi bo'lib, 38 yil yashagan va 21 yil taxtni boshqargan. U buyuk Yuliy Sezarning muhabbatini qozonib, undan bir o'g'il farzand ko'rgan. 18 yoshida Kleopatra 9 yoshli ukasi Ptolemeyga turmushga chiqadi. O'sha paytlardagi Misr qonunlariga ko'ra, ayolning o'zi hukmdor bo'la olmasdi – u faqat hukmdorning xotini bo'lishi mumkin edi. Bu nikoh unga hokimiyat huquqini bergandi, zero, uka faqat rasmiyat uchun kerak edi. Uning eri va ayni paytda ukasi Ptolemey 13 yoshida Kleopatraga qarshi isyon ko'taradi. Biroq isyon Sezar qo'shinlari yordamida bostiriladi. Kleopatra haqiqiy ko'ngil bergani – bu Rim qo'mondoni Mark Antoniy edi. Malika undan uch nafar farzand ko'radi. Tarixchilarning qayd etishicha, Kleopatra yetti til bilgan. Sezar vafotidan keyin Rimda imperator Oktavian hokimiyat tepasiga kelganida, Rim qo'shinlari yana Misrga yurish qilib, uning qo'shinlarini tor-mor etadi. Oktavian uni o'z ma'shuqasiga aylantirishni rejalashtirganini bilgan Kleopatra o'z joniga qasd qiladi.

Tarixda turkiy millatga mansub ayollarning erishgan yutuqlari, mavqelari va qozongan muvaffaqiyatlari ko'p bo'lgan. Ahamoniylar davlatining mashhur podshohi Kir II ni mag'lub etgan birinchi ayol hukmdor To'maris turkiy massaget qabilasidan edi.

Cho'lpon tarixiy shaxslar barobarida afsonaviy obrazlarga ham murojaat etib turgan. Jumladan, afsonaviy qush-ayol obrazi Semiramidaga qarata yozilgan she'r diqqatga loyiq. Qadimgi Bobil malikasi Semiramidaning ismi dunyoning yetti mo'jizasidan biri – Osma bog'lar nomi ham bo'lganidan abadiylikka muhrlandi. Uning haqiqatan tarixda yashab-yashamagani ma'lum emas. Tarixchi sitsiliyalik Diodor rivoyat va ma'lumotlarni tartibga solgan va hozirgacha biz bilgan malika Semiramida haqidagi afsonalarning muallifidir. Aytilishicha, Semiramida dengiz ma'budasi Derketo va oddiy inson qizi edi. Onasi bolani o'rmonda qoldirgach, u yerda

qizni kaptarlar boqadi. Qirolning cho'poni Sima qizaloqni topib olib, parvarishlab o'stiradi. Qizchaga "kaptar" ma'nosini anglatuvchi Semiramida ismini beradi. Qiz ulg'aygach, behad chiroyliligi uchun unga Ossuriya shohi Ninning generali Onney uylanadi. Onney qizni o'zi bilan jangga olib boradi va u yerda ossuriyaliklarning g'alabasiga sabab bo'lgan qal'a hujumini shaxsan qizning o'zi boshqaradi. Podshoh Nin go'zal jangchini ko'rib, Onneydan xotinini unga berishini talab qilib, evaziga generalga o'zining qizini taklif qiladi. O'z xotinini sevgan general bu taklifni rad etadi. Shunda hukmdor qo'mondonga ko'zlarini o'yib olish bilan tahdid qiladi. Sevimli ayolidan voz kecha olmagan general o'zini osadi. Podshoh bundan mamnun bo'lib, yosh bevani xotinlikka oladi. Yangi malika harbiy yurishlarni davom ettiradi. Bir muddatdan so'ng Semiramida Niniy ismli o'g'il tug'ib beradi. Yaqin Sharq deyarli butunlay zabt etilganda, qal'alardan biriga hujum paytida podshoh yaralanadi va vafot etadi. Jang qizg'in davom etayotgan paytda Ossuriya askarlarining jangovorlik kayfiyatini saqlab qolish uchun Semiramida kichik o'g'li nomidan qo'shinlarga buyruq yubora boshlaydi. G'alabadan so'ng Semiramida o'zini rasman "muvaqqat podsho", ya'ni valiahd voyaga yetgunga qadar mamlakatni idora qilish huquqiga ega inson, deb e'lon qiladi va marhum erining ishlarini davom ettiradi.

Uzoq davom etgan hukmronlik davrida (Diodorning so'zlariga ko'ra, 42 yil davom etgan) Semiramida Liviya va Efiopiyani o'z davlatiga qo'shib oladi va Hindistonni zabt etish uchun yo'l oladi. Biroq u yerda ossuriyaliklar kutilmagan muammoga duch kelishadi: Hind armiyasining tarkibida jangovor fillar bor edi. Semiramida hindlarni qo'rqitishga qaror qiladi. U mingta qora buqani so'yishni va ularning terisini yog'och taxtalarga cho'zishni buyuradi. Natijada, uzoqdan qaraganda ulkan fillarga o'xshash hayvonlar paydo bo'ladi. G'ildiraklarga o'rnatilgan bu yasama hayvonlarni tuyalar harakatlantirib boradi. Birinchi hujum muvaffaqiyatli o'tadi, keyin esa hindlar va ularning haqiqiy fillari hujumchilarni mag'lub etishadi va hatto malikani yarador qilib, ossuriyaliklarni Hindistondan qochishga majbur qilishadi.

Muvaffaqiyatsizlikdan keyin Semiramida shaharsozlik ishlari bilan shug'ullanishga qaror qiladi. U avvalo Bobilning ikki tarafini bir-biriga bog'lash maqsadida Furot ostidan yer osti yo'li qazishni mo'ljallaydi. Uning ikkinchi loyihasi dunyo mo'jizalaridan biri sifatida mashhur bo'lgan Osma bog'lar edi. Diodorning tasvirlashicha, bu bog' tog' o'simliklari o'sadigan ko'p qavatli ayvonlardan iborat edi. Ular Furotdan maxsus ko'tarilgan suv bilan

sug'orilgan. Inshootning balandligi 60 metr bo'lgan. Ayvonlarning har birida tuproq qatlami shunday qalinlikka ega ediki, unda daraxtlar chuqur ildiz otish imkoniyatiga ega bo'lgan. Ba'zi zamonaviy olimlar bu bog'ning mavjud bo'lganiga shubha qilishadi, chunki bu haqda xabar beruvchi hamma manbalar so'nggi antik davrga borib taqaladi, bog'larning taxmin qilingan joyidagi qazishmalar esa hech qanday natija ko'rsatmagan.

Cho'lpon bu afsona qahramoni Semiramidaga ixlos qo'yadi. U orqali o'lkadagi onalarni uyg'otishni xohlaydi. Ayol ekaniga qaramasdan, erkaklardek jasorat ko'rsatib, mo'jizalar yaratgan Semiramida kabi qahramonlarga millat muhtoj ekaniga ishora qiladi:

*Sen erkaklar kiyimida zo'r qal'alar ochganda,
Otlaringning changlarini Sind bo'yiga sochganda,
Yo'llaringda qon dengizi ko'pirganda, toshganda,
Sening kabi istagiga ega bo'lgan onalar
Nega bugun turmushdagi har tilakdan tonalar?...
Ey dengizning tublariga qochib kirgan kaptar qiz,
Kel, mundog'i onalarni uyg'otaylik ikkimiz!...*

[Чўлпон 2016, 145].

Hatto dastlabki savodini chiqarishga ham imkoni bo'lmagan o'zbek ayolidan Cho'lponning umidi, ishonchi katta bo'lganini keltirilgan satrlar ochiq ko'rsatmoqda. Shoir o'zbek ayoli afsonaviy qiz Semiramidaga xos kuch, viqor va yaratuvchanlik qudratiga egaligini eslatishni istagan.

Ha, ana shunday kuch va matonatga, salohiyat va iqtidorga ega onalar, qizlar, xonimlar bor edi va asta-asta o'zlarini ko'rsata boshlagandilar. O'sha nomlari tarixga muhrlangan o'zbek ayollari Cho'lpon va Hamzaning she'rlarida bor. Masalan, Cho'lponning "Sharafli xizmat" she'ri ijodda, san'atda va ilmda peshqadam, "o'zbek sahnasining qimmatli san'atkori M.Sa'diya Tutashga" bag'ishlangan. M.Sa'diya-Tutash o'tgan asrning 20-40-yillarida mashhur bo'lgan o'zbek drama teatri artisti M.Qoriyeva (1902-1946) edi [Чўлпон, 2016, 343]. Mazkur she'r 1922-yilda M.Qoriyevaning o'zbek sahna san'ati ravnaqi yo'lidagi o'n yillik xizmati sharafiga yasalgan benefis kuni o'qilgan.

*O'zbek qizi o'z og'zi-la aytolmagan so'zini
Sening o'tkir tiling bilan eshittirdi eliga.
O'zbek qizi sil oqartgan, so'lg'in, g'amli yuzini
Sen orqali ko'rsatdi-da qutultirish yo'liga.
O'zbek qizi yana ko'p yil kishanlardan qutulmas,*

*Ko'z yoshlari yana ko'p yil o'z yurtiga to'kilur...
 Ko'z yoshlari yana ko'p yil shodlik ko'rmas, ochilmas,
 Yana ko'p yil tovushlari qorong'ida yo'q bo'lur...
 Shuning uchun mendan senga eng samimiy olqishlar,
 Ey yo'qsillar sahnasida eng qimmatli san'atkor!...*

[Чўлпон, 2016, 113].

M.Qoriyeva haqida "Ma'suma" romanini yozgan nosir Isajon Sulton 2021-yil Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G'alaba bog'ida yurtboshimiz ham eslab o'tgan qahramonini shunday tanishtiradi: *"Prezident tilga olgan Ma'suma Qoriyeva – ana shunday fidoyi, o'zbek teatrining ilk qaldirg'ochlaridan biri. Uning hayoti nafaqat roman, balki spektakl, badiiy film yoki serial uchun ibratli mavzu ekanini barcha ijodkorlarimiz e'tirof etishdi. Qatag'onga duchor bo'lgan yuzlab ma'rifatparvarlar, juvonmarg bo'lgan minglab oilalar qatorida xalqqa teatr vositasida ma'rifat ulashish qismatini bo'yniga olgan va oxir-oqibat, avlod-ajdodi bilan kuli ko'klarga sovurilganlar qismati kishini seskantiradi, fidoyi zotlarining qutlug' orzusi bo'lmish milliy davlatimizni ko'z qorachig'iday asrab-avaylashga undaydi"* [Султон 2022, 3]. Haqiqatan, Ma'suma xonim barcha zamondoshlariga ibrat bo'lgulik umr yo'lini bosib o'tgan edi. Sahnadagi ijrolari xalq mehrini qozongan Ma'suma Qoriyeva tom ma'nodagi ziyoli, ma'rifatparvar o'laroq "Yangi yo'l" jurnalida e'lon qilgan "Bilimlik murabbiyalar yetishtiraylik" nomli maqolasida ham barcha xotin-qizlarni ilm olishga chorlagan. Unda xotin-qizlar savodxonligi va bolalar tarbiyasi masalasi ko'tarilgan. Qoriyevaning nazaricha, *"Xotinlar ozodlig'i uchun, eng avvalo, ularning bolalari to'g'risida ko'ngillarini tinchitish zarur"* [Қorieва 1928, 12]. M.Qoriyeva maktab va bog'chalarga tayyorgarlik kurslarini tamomlagan bilimli murabbiyalarni olish kerakligini alohida ta'kidlaydi: *"Maktabgacha tarbiya ishlarida ilgaridan tayyorlig'imiz yo'q, pedogugiya fani bilan oshnolig'imiz juda ozdir. Hozirda fan bilan qurollang'an, o'z ishini suyguchi murabbiyalar tayyorlash ishi eng zarur vazifamizdir"* [Қorieва 1928, 12].

Chindan ham, bu xil murabbiyalarni yetishtiradigan bilim yurtlari vaqti kelib paydo bo'ldi va ular kun sayin ko'payib bordi. Cho'lponning ham yonib-kuyishlari bejiz emasdi, chunki u bilardiki, o'zbek ayollari orasida zehni o'tkir, zukko va iste'dodli, ilmu fasohatli ayollar talaygina. Shoir orzu qilgan kunlar ko'p o'tmay amalga oshdi. Xotin-qizlar uchun ochilgan savodxonlik kurslari va ta'lim muassasalari haqidagi "Irfon keladir!" she'ri o'zbek bilim yurtining ilk besh qaldirg'ochiga bag'ishlangan.

Cho'lponning zamondoshlariga bag'ishlangan asarlaridan yana biri – 1925-yil chop etilgan "Lolalar ko'nglini anglagan Lola..." she'ri Lola (Lidiya) Seyfullinaga atalgan. Bu xonim bilan Cho'lpon Moskvada tanishib, uning "Ichkari" – o'zbek xotin-qizlari hayotidan olingan sochma she'rlardan tashkil topgan kitobini tarjima qilgan va shu kitob debochasiga "Mutarjimdan" sarlavhasi ostida yuqorida nomi keltirilgan she'rni e'lon qilgan.

*Lolalar ko'nglini anglagan Lola,
Lolalar tilidan qilibsan nola.
Lolalar nolasi achchiq bo'lsa ham,
To qalbdan kelguvchi sanchiq bo'lsa ham,
Tinglab kelgan edi karquloq devor,
Erkakning o'zidek bir no'noq devor...*

Lidiya Seyfullina 1889-yil 3-aprelda Orenburg guberniyasida tug'ilgan. Otasi tatar, onasi esa rus edi. U tabiatan mard va jasur, shijoatli va haqiqatparast, ushoq jussasiga qaramay hukumat rahbari(I.V.Stalin nazarda tutilmoqda)ga ham tik qarab turib, ijodkorlarga nisbatan adolatsizlik qilmaslikni ayta olgandi. U M.Gorkiy, M.Mayakovskiy, A.Fadeyev kabi ilg'or rus oydinlarining e'tirofini qzongan, hatto bulardan ayrimlarining ijod maydoniga kirib kelishiga turtki bo'lgan. 7 yoshidanoq ijod olamiga kirgan Lidiya o'z hayotini ta'lim va tarbiya, kutubxonachilik, o'qituvchilik faoliyati bilan davom ettirgan. 1909-1911-yillarda teatrd faoliyat ko'rsatib, u yerda yosh bolalar va komik kampirlar rolini ijro etgan. Lidiya kasallanib qolgach, teatrga qaytmagan. Uning turmush o'rtog'i ham o'zi kabi ijodkor va adabiy tanqidchi – Valerian Pravduxin bo'lib, ular hamkorlikda ijod qilishgan.

1917-yildan boshlab Lidiya Orenburg matbuotida faollik ko'rsatgan. Kutubxonachilik qila turib, mahalliy rus va boshqird aholisining hayoti va turmush tarzini chuqur o'rganib chiqdi, hamqishloqlari, ayniqsa ayollar manfaatlarini tish tirnog'i bilan himoya qildi. 1924-yilda juda ko'p e'tiroflarga sabab bo'lgan "Virineya" asarini yaratadi. Bu asar dehqon ayoli taqdiriga bag'ishlangan. U Moskva, Leningrad, Praga kabi shaharlarda sahnalashtirilgan va muvaffaqiyatli ijro etilgan. A.V.Lunacharskiy asar haqida shunday deb yozgan edi: "inqilobdan keyingi teatr san'ati bizga bergan eng yorqin va ibratli obraz sifatida Vireneyani e'tirof etishga tayyorman". 1923-yilda Lidiya oilasi bilan Moskva shahriga ko'chib kelganida uning ikki xonali uyida S.Yesenin, M.Sholoxov, M.Prishvinlar mehmon bo'lishgan edi. Teatrd ishlab yurgan kezlarda ko'p joylarda gastrollarda bo'lgan, shular orasida

Toshkent shahri ham bor edi. U ko'plab Yevropa mamlakatlari – Turkiya, Polsha, Chexoslovakiya, Fransiya sayohat qiladi. Uning rang-barang va mashaqqatlarga to'la hayoti asarlarida o'z aksini topdi. Lidiya Seyfullinaning yozishicha, uni hayotning o'zi yozuvchi qilgan edi. 1922-yilda yozilgan "Huquqbuzarlar" ("Pravonarushiteli") kitobi unga katta shuhrat keltirgan. Kitob Moskva va Novosibirskda katta tirajlarda chop etilib, boshqa tillarga tarjima qilingan. Asar Ural va Sibirdagi maktab dasturlariga kiritilib, barcha shahar-tumanlarga bezori bolalarni tarbiyalash instruksiyasiga qo'shib tarqatilgan. "Huquqbuzarlar" yosh avlodni tarbiyalash yo'lidagi dasturilamal sifatida keng targ'ib etildi. Bu asar bolalar tarbiyasiga qaratilgan harakatda ilk qadam edi. Mashhur pedagog A.S.Makarenko Lidiya Seyfullinaning "Huquqbuzarlar" qissasini yuqori baholagan. Hali bu paytda uning "Pedagogik poema"si dunyoga kelmagan edi.

1920-yillarda Rossiya uchun qarovsiz qolgan yetim bolalar haqiqiy falokat edi. Tabiiyki, bu mavzu o'sha yillarning ko'plab yozuvchilarini ham tashvishga solgan. Bu Anton Makarenko, Aleksandr Neverov, Leonid Panteleyev, Grigoriy Belix, Vyacheslav Shishkov va boshqalarning asarlarida aks etgan. Ammo Lidiya Seyfullina unga birinchilardan bo'lib murojaat qildi. Va yozuvchining o'zi bir vaqtlar ko'cha bolalari bilan ko'p ishlaganligi sababli (asarda tasvirlangan bolalar koloniyasi va qahramonlarning prototiplari haqida hujjatli dalillar mavjud) bu muammoni ichkaridan bilar edi.

Turgoyak ko'li bo'yidagi Mehribonlik uyi 1920-yilda ko'cha huquqbuzarlari uchun birinchi qishloq xo'jaligi koloniyasi sifatida ish boshlagan va 1924-yilgacha mavjud bo'lgan. Hozirda bu manzil eshitmaydigan va eshitish qobiliyati past bolalarga turar-joy vazifasini bajaradi.

1921-yil yozida Lidiya Nikolayevna va uning turmush o'rtog'i koloniya rahbari Mixaylovning taklifiga binoan bu yerga kelishadi. Koloniyadagi bolalar uni qo'rquv aralash tuyg'u bilan qabul qilishadi. Ammo tez orada ular uni hikoyachi sifatida qadrlay boshlashadi. Lidiya bolalar bilan birga tushlik qilar, qo'ziqorin va rezavor mevalarni yig'ish uchun qayiqda birga suzar edi. Bolalar ham jon qulog'i bilan uning ajoyib hikoyalari, ertaklarini tinglar edi. Uning rahbarligida Turgoyak ko'li yaqinidagi Madaniyat uyida qishloq bolalari va aholisi uchun spektakllar namoyish etishardi. Afsuski achchiq qismat Lidiyani ham chetlab o'tmadi. Uning eri 1937-yilda hibsga olingan va qatl qilingan. Hayot zarbalari Lidiyaning qaddini buka olmadi. Urush davrida u harbiy muxbirlik qildi va komandirlar orasida "Gvardiya onaxoni" nomini oldi. U 1954-yilda vafot etdi.

Darhaqiqat, Cho'lpon ta'kid etganidek, Lidiya Seyfullina – Lolaning nolasini butun jahon tinglashga muyassar bo'ldi. Uning asarlari hayotligidayoq xorijiy tillarga o'girildi, odamlarni ziyoga, adolat va to'g'rilikka da'vat etdi.

*Endi bu nolangni jahon tinglasin!
Dillarda bor esa vijdon, tinglasin!*

Hamza ijodida ayollar mavzusi

Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida ham ayollar mavzusi dardli va keskin ohangga ega. 1928-yil may oyida teatrchilar bilan Buxoroga gastrolga borgan vaqtda eri tomonidan vahshiyona o'ldirilgan aktrisaning o'limi shoirni ta'sirlantiradi. Bir marsiya bitib, uni dafn qilish marosimida o'zi o'qib beradi.

Tursunoy Saidazimova (1909-1928) Toshkent shahrida tug'ilgan. U ilk o'zbek aktrisalaridan biri edi. 1925-1927-yillarda Moskvada o'zbek drama studiyasida o'qib, 1927-1928-yillarda O'zbek Davlat drama truppasi (hozirgi Milliy teatr)da aktrisa bo'lib ishlagan [Xamza 1998, 519].

*Qurimasdan dorga yoygan ko'ylagim,
Yozmay shimarilgan nozik bilagim,
Vafosiz yor ekan, qonimni to'kdi,
Shul erdimi, do'stlar, sevgan tilagim?
Menga motam tutib, qora bog'lamang,
Tengu to'shim nozik bag'rin dog'lamang,
Tursunoydek yovuq seving, singillar,
To'kis bilim ko'rmay, turmush chog'lamang!*

Yosh bo'lsa-da, o'sha davr ayollari uchun ancha xatarli kasbni tanlagan va shu tanlovi sababli hayotdan bemahal ko'z yumgan Tursunoy jaholat qurboni bo'ldi. Rashkidan o'z rafiqasini o'ldirishgacha borgan Hojiqu'l timsolidagi ko'zi ojiz, qalbi ko'r, johil insonlar bir emas ko'plab bo'lganini, taassufki, tegishli davrga oid manbalar tasdiqlaydi.

Tursunoy Saidazimova (1911-1928) o'zining qisqa umri mobaynida Mariya Antonovna («Revizor»), Turandot («Malikai Turandot», 1927), Klariche («Ikki boyga bir malay») va boshqa obrazlarni yaratgan. G'ulom Zafariyning «Halima» musiqali dramasida Halima rolini o'ynab, o'zbek musiqali sahna ijrochiligida yangi sahifa ochdi.

Hamzaning bor tilagi – ayollar erksizligiga qarshi kurash, ularni ilm-ma'rifatli qilish, ularni jamiyatda hukm surayotgan "johillik" kishanlaridan qutulishga da'vat etishdan iborat edi.

Unga zamondosh qalamkashlar ham ahli millatning ilmu ma'rifati, ziyosi, erki va istiqboli muammosining yechimini, eng birlamchi, xotin-qizlarni ma'rifatli qilishda deb bilgan.

Ulkan ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy arab ayollarining turmushi haqida shunday yozadi: "Yerli arablar qatorda ko'p bo'lur, sahroi xotunlari qochmaydi. Shaharlilarini Turkistonga nisbatan "yarim satr" (yarim o'ralgan), ammo o'zlarini yaxshi tutarlar. ... jome'larida dastalar ila musulmalar kelib nomoz o'qimoqda... Masjid ravoqlarining kunjida o'z uyida tikish tikib o'tirgani ko'riladur, ammo faraji ilan" [Яхшиликов, Убайдуллаева 2004, 112; Бехбудий 1997, 16]. Ko'rib turganimizdek, Behbudiy ayolga xos ibo va hayoni faqatgina libos bilan bog'liq emasligini ta'kidlamochi bo'lgan. Jadid ma'rifatparvarlari bu to'g'rida hamisha yakdil fikrda bo'lishgan.

Tursunoy Saidazimova singari san'at yo'lini tanlagan yana bir ayol – benazir san'atkor Tamaraxonimga bag'ishlangan Hamzaning she'ri "Oymisan yo qamara..." deb nomlanadi. Ilk bor "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 1971-yil 1-sonida e'lon qilingan bu she'rning yozilish tarixi haqida Tamaraxonim bunday yozadi: "Farg'ona shahridagi binolardan birini bizga repetitsiya o'tkazish uchun berilgan edi. Tez kunda konsert programmasi tayyor bo'ldi va avvalo Farg'ona, so'ng Marg'ilon, keyin Qo'qonga borib, tomosha ko'rsatdik. Biz yo'lda ketar ekanmiz, Hamza poyezdda unda-munda menga ko'z tashlab, miyig'ida kulib, uzun qog'ozga she'r yozar edi. Ertasi konsert vaqtida Hamza mening o'yinimdan keyin sahnaga chiqib, boshimga tillaqosh taqdi-da, bu she'rni xalqqa o'qidi..." [Хамза 1998, 540-541].

*Oymisan yo qamara,
Beling nozik kamara,
Noming ekan Tamara,
Jahonga kulib qara.
Shon-shavkat keltirding san
Elimizdan Parijga,
Yasha, endi ko'rma g'am,
Yasha, singlim Tamara* [Хамза 1998, 304].

Ayol kishining sahnaga chiqishi Turkiston hayotida aql bovar qilmaydigan ish edi. Lekin olti yoshli qizalog'ining go'zal harakatlarini ko'rib, katta iste'dod ulg'ayotganini ilg'agan Tamaraning onasi "Mana, ko'rasiz, u hali Parijda raqsga tushadi!" – deya g'ururlanib aytgan, biroq bu gapni eshitganlar onaning ustidan kulishgan. Vaqtlar o'tib Parijdagi tantanali chiqish yosh raqqosa

Tamaraning kelajakdagi zafarlariga debocha bo'ldi. Uning san'atga cheksiz ishtiyoqi va havasi kun sayin ortib borar edi. Ayni damda o'ziga va hatto ota-onasiga yomon ko'z bilan qarovchi kimsalar ham ko'payib borar edi. Otaga, qizini tiyib olmasa, ta'zirini berishlarini aytib, tahdid qilishgan (afsuski, shunday bo'lgan ham, Tamaraning otasini o'ldirib ketishgan). Ammo bir voqea Tamaraning taqdirini o'zgartirib yuborgan. Xalq orasida ma'naviyatni kuchaytirish ishlari yuzasidan mas'ul etilgan Hamza boshchiligidagi "Sharq" tashviqot poyezdi ularning shaharchasiga kelib to'xtaydi. Kimdir Hamzaga juda iste'dodli yosh raqqosaning xabarini beradi. Shu asnoda yoshgina Tamara 1918-yil ilk marta sahnaga chiqib, atigi 26 yoshida ayol san'atkorlar ichida birinchi bo'lib O'zbekiston xalq artisti unvonini qozonadi.

Tamaraxonimga bag'ishlangan bu she'rda aslida xalqimizning barcha iqtidorli, qobiliyatli, san'atchi xotin-qizlari madh etilgan. Ularning iste'dodini bo'g'ayotgan, chimmatlarga burkab dunyoni ko'rsatmayotgan ayrim mutaassiblar Hamzaning o'tkir tig'li so'zlariga duchor bo'lishgandi. She'r ommaga, "qora el"ga qarata aytilgan bo'lib, unda xalqning muayyan vakillariga murojaat, arz, shikoyat va nido ham bor edi. Buni ustoz Ulug'bek Hamdam juda yaxshi izohlaydi: "Hamza aytmoqchi "qora el"ning tushunishi oson bo'lishi uchun jadid shoirlari ongli ravishda obrazlilikni keyingi o'ringa qo'yadilar – narsalar o'z nomi bilan ataladi. Negaki, sirasini aytsak, jadid shoirlarining aksariyat she'rlari mohiyatan keng ommaga qaratilgan nutq – va'zdir. Shu sababli ham jadid she'riyatida obrazli ifodadan ko'ra ritorik priyomlar muhim ahamiyat kasb etadi" [Хамза ва XX аср ўзбек адабиёти 2019, 99-100].

"1927-yil bahorida Toshkentda partiya kengashi juda tezlik bilan Turkiston ayollarining paranjisini yechish maqsadida o'z oldiga 6 oylik muddat qo'ydi. Ya'ni oktyabr revolyutsiyasining 10 yilligi sharafiga Turkiston ayollarini paranjidan qutqarish harakati boshlandi, unga "Hujum" deb nom berildi. "Hujum" harakati mohiyatan eski, mog'or bosgan illatlarga qarshi hujum va ularni bartaraf etishni nazarda tutgan bo'lsa ham, Turkiston va Ozarbayjonda u avvalo ayollarning paranji tashlashi va ozod bo'lib, savod chiqarishini maqsad qilgan".

Cho'lpon va Hamzaning shu yillarda yozganlarida siyosiy mafkura qolipiga moslashish kayfiyati seziladi. Hatto Sho'ro mafkurasiga xizmat qiluvchi shior va chaqiriqlar yo'q emas. Shunday bo'lsa-da, ularning asl g'oyasi – erk va ma'rifatga undash bo'lgan. Jumladan, Hamzaning o'sha yili yozilgan "O'zbek xotin-qizlariga"

she'ri "Yangi Farg'ona" gazetasining 22-fevral sonida "Chig'irliq" bo'limida "Tovontesha" imzosi bilan bosilib chiqqan:

*Keldi ochilur chog'ing o'zliging namoyon qil,
Parchalab kishanlarni har tomon parishon qil.
Maktab, anjuman borg'il, unda fikr ochib gohi
Ilmu fan tig'i birlan jahl bag'rini qon qil*

[Hamza 1998, 196].

Aynan paranji tashlash kampaniyasi boshlangan paytda yozilgan mazkur she'r ko'plab mahalliy mutaassib dindorlarda noto'g'ri taassurot uyg'otgan. Nafaqat erkaklar, hatto ayrim ayollar orasida ham paranji tashlashga tish tirnog'i bilan qarshi kurashganlari yo'q emas edi. Biroq Hamza kabi jadid ma'rifatparvarlari ko'zlagan maqsad faqatgina "shakl" bilan emas, aynan "mazmun" bilan bog'liq edi.

"Xotin-qizlar ovozi" – qo'lyozmasi saqlanmagan ushbu she'r birinchi marta "Yangi Farg'ona" gazetasininng 1927-yil 17-fevral sonida bosilgan. Hamza mazkur she'rni matbuotda e'lon qilibgina qolmay, ashula sifatida aytilib yurishi va ommalashishiga ham katta e'tibor bergan. "1927-yili, deb eslagan edi taniqli xonanda Lutfixonim Sarimsoqova¹, Hamza "Xotin-qizlar ovozi" she'rini menga taqdim etib, ashula qilib aytishimni iltimos qildi. Ashula ohangiga mast bo'lgan Hamza menda talant borligini qayd qildi..." [Hamza zamondoshlari xotirasida, 150].

*Bas, shuncha qizg'onding
Bizga ilm ila fanni.
Ol o'zing yop bu kundan
Bizga ilgan kafanni.
Tutamlama soqoling,
Mallang kafan bo'ladi.*

Lutfixonim Sarimsoqova keyinchalik Hamzaning «Maysaraning ishi» komediyasidagi Maysara timsolida ayol erki va qadrgimmatini himoya qilishni, «Paranji sirlari»da esa Mastura satang obrazi orqali, aksincha, xotin-qizlarning huquqlari va tuyg'ularini yakson qilishni aks ettirishga muvaffaq bo'lgan.

¹Lutfixonim Sarimsoqova xonanda sifatida «Quling», «O'zgancha», «Yor-yor», «Hakkalakam o'ynasam man», «Jambilxon», «Yorginam», «Omon bo'laylik», «Qilpillama» kabi o'zbek xotin-qizlarining xalq ashula, qo'shiq va laparlarini mahorat bilan ijro etgan. Lutfixonim Sarimsoqova hayoti va ijodiga bag'ishlangan «Aya» (1976), «Lutfixon aya» hujjatli filmlari ishlangan. Vafotidan so'ng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan (2001).

Xulosa

Yuqoridagi she'rlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Hamza va Cho'lponning ayollar obraziga bag'ishlangan she'rlarida erk va ozodlik g'oyalari targ'ib etildi. Zero, har bir shoirning estetik ideali – jamiyat ravnaqiga, insonlar tafakkurini o'stirishga va zamon talabiga javob beradigan barkamol avlodni yetishtirishga xizmat qilishi lozim. Shu bilan birga she'riyatdagi ijtimoiy pafos, zamon ruhi va kayfiyati o'ziga xos munosabat va tasvirni yaratgan.

She'rlarining deyarli barchasi barmoq vaznida bo'lgani ularga o'zlari qasd qilgan mazmun va fikrlarni oson va sodda, tushunarli va ta'sirchan shaklda yetkazishlariga imkon yaratgan. Bu esa adabiyotshunoslik tarixida qayd etilganidek, aruzdan barmoqqa o'tish sur'atining tezlashganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, millat ziyolilari xotin-qizlarga ko'rsatilgan jabr-zulmga qarshi chiqib, ularning to'laqonli mustaqil shaxs sifatida tan olishni targ'ib qildilar. Dastlab jadidlar tomonidan targ'ib qilingan xotin-qizlar ma'rifati, erki va hurriyati g'oyalari keyinchalik sho'ro mafkurasiga qo'l kelgan. Shu bois ilm-ma'rifat g'oyasi targ'ibi bilan "Hujum" kompaniyasi harakatlari go'yo uyg'unlashib ketdi.

Jadid she'riyatidagi xotin-qizlar obrazi bilan bog'liq asarlar, asosan, ijtimoiy tasvir asosiga qurilgan. Real voqea-hodisalar tasviri ijodkorning g'oyaviy-emotsional, subyektiv munosabatiga asoslangan bo'lib, tarixiy va zamondosh ayollarga munosabat orqali shoirning estetik ideallari haqidagi tasavvuri namoyon bo'lganki, bular milliy adabiyotimizda realistik badiiy talqinning takomiliga xizmat qildi.

Adabiyotlar

- Бехбудий, М. 1997. *Танланган асарлар*. Тошкент.
- Тайны о Клеопатре: Интересные факты о женщине-фараоне, ставшей женой своих братьев. <https://graziamagazine.ru/lifestyle/tayny-kleopatry-interesnye-fakty-o-zhenshchine-faraone-stavshey-zhenoy-svoih-bratev/>
- Тожиматова, М. 2022. "Кулган бошқалардир, йиғлаган менман". Ўзбекистон Халқ ёзувчиси Исажон Султон билан суҳбат. *Янги Ўзбекистон*, 23 август.
- Чўлпон. 2016. Асарлар. 4 жилдлик. 1 жилд. *Шеърлар. Мансуралар. Шеърлий хатлар*. Тошкент: Академнашр.
- Шакирова, О. 2014. Лидия Сейфуллина. *Страницы биографии*. <https://miasslib.ru/2014/04/21/lidiya-sejfullina-stranitsy-biografii-20140421-095428/>
- Яхшиликков, Ж., Убайдуллаева, Н. 2004. *Жадидчилик ва Бехбудий*. Тошкент: Фан.
- Қориева, М. 1928. "Билимлик мураббиялар етиштирайлик". *Янги йўл*

7: 12.

- Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти: мақолалар тўплами. 2019. Нашра тайёрловчи З.Қобилова. Тошкент: Фарғона.
- Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. 1998. *Тўла асарлар тўплами*. 2 том. Шеърлар. Педагогик рисоалар. Насрий асарлар. Тошкент: Фан.
- Gülbeniz Babaxanlı. *Hüseyn Cavid dramaturgiyası işığında pandemiya dövrünün fəlsəfi dərkı*. <https://science.gov.az/az/news/open/12887>
- Səbinə Dünyamahyeva. *Hüseyn Cavid yaradıcılığında qadın*. <https://nuhcixan.az/news/cemiyet/8402-huseyn-cavid-yaradiciliginda-qadin>
- Семирамида – царица виссячих садов и фальшивых слонов. <https://diletant.media/articles/45335141/>
- Sevinc Əsədova. *Hüseyn Cavid yaradıcılığında qadın problemi*. <https://525.az/news/3196-huseyn-cavid-yaradiciliginda-qadin-problemi>
- Sevinc Qəmbərli. *Hüseyn Cavid: ortağ türk dili və feminizm məsələləri*. <https://manera.az/index.php?newsid=9638>

Socio-Aesthetic Factors of the Female Image In Uzbek Jadid Poetry

(using the example of poems Chulpan and Hamza)

Nodira Kholikova¹

Abstract

At the beginning of the XXth century, the socio-political, cultural and educational perception of the life of the Turkestan region, finding its vivid expression in literature, paid great attention to the issue of propaganda of factors contributing to development. At this time, the role and position of women in society has changed somewhat. The image of women is very widely used in Uzbek Jadid poetry, and the contribution of such enlightenment poets as Hamza and Chulpan to this topic was unlimited. The works of the same creators have opened a new metric and genre, new images and heroes. Since the article tells about several historical and mythical female characters, they are compared and analyzed among themselves.

¹Nodira D. Kholikova – candidate of philological sciences, Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: kholikovanodira@navoiy.uni-uz

ORCID ID: 0009000803836301

For citation: Kholikova, N. D. 2023. "Socio-aesthetic factors of the female image in uzbek jadid poetry (using the example of poems Chulpan and Khamza)". *Uzbekistan: Language and Culture* 3: 77 – 93.

Key words: *girl of the East, freedom, Motherland, enlightenment, educated teachers, veil.*

References

- Behbudiy, M. 1997. *Tanlangan asarlar*. Toshkent.
- Тайны о Клеопатре: Интересные факты о жемчине-фараоне, ставшей женой своего брата*. <https://graziomagazine.ru/lifestyle/tayny-kleopatry-interesnye-fakty-o-zhenshchine-faraone-stavshey-zhenoy-svoih-bratev/>
- Tojimatova M. 2022. "Kulgan boshqalardir, yig'lagan menman". O'zbekiston Xalq yozuvchisi Isajon Sulton bilan suhbat. *Yangi O'zbekiston*, 23 avgust.
- Cho'pon. 2016. *Asarlar*. 4 jildlik. I jild. She'rlar. Mansuralar. She'riy xatlar. Toshkent: Akademnashr.
- Shakirova, O. 2014. *Lidiya Seyfullina. Stranisi biografii*. <https://miasslib.ru/2014/04/21/lidiya-sejfullina-stranitsy-biografii-20140421-095428/>
- Yaxshiliqov, J., Ubaydullaeva, N. 2004. *Jadidchilik va Behbudiy*. Toshkent: Fan.
- Qorieva, M. 1928. "Bilimlik murabbiyalar yetishtiraylik". *Yangi yo'l* 7: 12.
- Hamza va XX asr o'zbek adabiyoti: maqolalar to'plami*. 2019. Nashrga tayyorlovchi Z.Qobilova. Toshkent: Farg'ona.
- Hamza Hakimzoda Niyoziy. 1998. *To'la asarlar to'plami*. 2 tom. She'rlar. Pedagogik risolalar. Nasriy asarlar. Toshkent: Fan.
- Gulbəniz Babaxanlı. *Hüseyn Cavid dramaturgiyası işığında pandemiya dövrünün fəlsəfi dərk*. <https://science.gov.az/az/news/open/12887>
- Səbinə Dünyamaliyeva. *Hüseyn Cavid yaradıcılığında qadın*. <https://nuhcixan.az/news/cemiyet/8402-huseyn-cavid-yaradiciliginda-qadin>
- Semiramida – saritsa visyachix sadov i falshivix slonov*. <https://diletant.media/articles/45335141/>
- Sevinc Əsədova. *Hüseyn Cavid yaradıcılığında qadın problemi*. <https://525.az/news/3196-huseyn-cavid-yaradiciliginda-qadin-problemi>
- Sevinc Qəmbərli. *Hüseyn Cavid: ortağ türk dili və feminizm məsələləri*. <https://manera.az/index.php?newsid=9638>

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni, Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki"

shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

VII. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

VIII.1. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya. Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya, kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*. Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*.

Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>, 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mamatov 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VIII.2. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8. Toshkent.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

VIII.3. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?" *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. "Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi". *UZA: O'zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12, <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "The Chicago Manual of Style, 16th Edition" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle> havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: language and culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s).

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of *The Chicago Manual of Style*, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: *Title of the Book*. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

- Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.
- Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.
- Level 3. Modified "down" style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.
- Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, "Author's own" translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of *University of Chicago Readings in Western Civilization*, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a

chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE

Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439-58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405-50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald's 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan 0936-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 30.09.2023-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasini.
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.